



BADIY ASARLAR: ERTAK, HIKOYA MAZMUNINI O'ZLASHTIRISH METODIKASI (2-SINF O'QISH VA ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA)

Sayyora Shavkatbekqizi Matkarimova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada ta'limgangi innovatsion texnologiyalar va turli metodlarni Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida foydalanish yo'llari va uning samarasi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchilar, kasblar, fanlar, o'quvchi, məktəb təlimi, dars, metodlar.

WORKS OF ART: THE METHOD OF MASTERING THE CONTENT OF A FAIRY TALE, STORY (ON THE EXAMPLE OF THE 2ND GRADE READING AND NATIVE LANGUAGE LITERACY TEXTBOOK)

Sayyora Shavkatbekqizi Matkarimova

Chirchik State Pedagogical University

Abstract: The article provides information about ways to use innovative technologies and various methods in the teaching of mother tongue and reading literacy and its effectiveness.

Key words: teachers, professions, subjects, student, school education, lesson, methods.

Hozirgi tezlik bilan jadallahib borayotgan yuksalish davrida hayotimiz har

daqiqada rangin tus olmoqda, yoshlar o'zgarmoqda va o'sib kelayotgan yoshlariimizning fikrlari, dunyoqarashi har turli va bu jarayon hozirgi ta'lim tizimida murabbiylarning tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni metodlarni qo'llashga, ta'limda yangi texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ma'lumki, «Adabiyot » darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz

Adabiyot darslaridan kuzatiladigan maqsad ham, ifodali o'qish mashg'ulotining asar mazmunini o'quvchilarga singdirishdan iborat. Kirish mashg'ulotlarida olib boriladigan barcha ishlar asar mazmunini o'quvchilarga yetkazish yuzasidan



ko'rildigan tayyorgarlikdan iborat. Asar mazmunini o'zlashtirish uni tahlil qilishga tayyorgarlikdir. Asarni tahlil qilish uni har tomonlama o'rganish uchun alohida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Lekin bu mashg'ulotlar matnning hajmi va hususiyatlariga qarab turlicha bo'ladi.

Kichik hajmli va mazmunini tushunish oson bo'lgan badiiy asarlarni ifodali o'qishdan so'ng tahlil qilinadi. Kichik hajmli asarlarga ertaklar, kichik hikoyalar, she'rlarni misol qilib olsak bo'ladi. Avvalo o'rta ta'llim tizimining boshlang'ich ta'llimida, badiiy adabiyotga, fanlarga kirish kichik hajmli asarlardan boshlanadi. Bungana'muna sifatida 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligini olganmiz. Ushbu darslikda o'quvchilar yoshidan va qiziqishlaridan kelib chiqib ko'plab badiiy asarlardan parchalar va badiiy matnlar, ertaklar, kungaboqar va To'lqinjon she'rlar keltirilgan.

Misol uchun amaldagi darslikning birinchi qismida: Chumolining jasorati ertagi, Nobel olaman, Fyodor amaki, kundaligimdag'i 2, Olim bo'lmoqchiman matnlari, shippak, Sharikning tug'ilgan kuni, qish ro'moli, inson tana a'zolariga atalgan hikoyalar, qora oltin ertak-hikoyasi, mahallamiz jarchisi, maktabim, eng yaxshi sovg'a, mahalla – ota-ona, kim qanday uxlaydi? Geolog so'zi, qanotli do'stlar, mikrob, shamol nega shamollamas ?, yo'qolgan qulqoq, hunarning hidi qanaqa? she'rlari, hunarning foydasi rivoyati va juda ko'lab mavzuni mustahkamlash bilan boyitigan.

Ushbu kichik hajmli ammo mazmunan juda boyitilgan asarlar o'quvchilarimizning bilimlarini oshiribgina qolmay, dunyoqarashlarini ham kengayishiga olib keladi; Darslikdagi deyarli barcha mashqlar va mustahkamlash uchun berilgan savollar o'quvchilarni shaxsiy qiziqishlariga qarab, har bir o'quvchi individual o'zi yozishiga moslangan.

Masalan darslikning birinchi yarmi oxiridagi "Katta bo'lsam, kim bo'laman? Mavzusiga e'tiborimizni qaratsak: Ushbu mavzuning birinchi mashqida "Katta bo'lsangiz kim bo'lmoqchisiz? Yozing" sharti keltirilgan va har xil kasblar haqida ma'lumotlar berilgan. Uchuvchi, o't o'chiruvchi, oshpaz, militsioner, kimyogar, shifokor, o'qituvchi, rassom kabilar ana shular jumlasidandir. Savollar qismida esa quyidagilar keltirilgan:

- 1.Rasmida qaysi kasb egalari tasvirlangan?
- 2.Ular qayerda ishlaydi?
- 3.Yana qanday kasblarni bilasiz?
- 4.Nima uchun aynan shu kasb egasi bo'lmoqchisiz?
- 5.Siz tanlagan kasbning boshqalarga qanday foydasi bor?

Yuqoridaq savollar 2-sinf o'quvchilari uchun juda mukammal tarzda tuzilgan va yana o'qituvchi qo'shimcha ravishda savollar beradi, dadangiz kim bo'lib ishlaydi?, oyingizni kasbi nima? kabi. Ana shunday savollar orqali o'quvchilarni hayotga, kasblarga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi.

O'quvchilarni kitob o'qishga fanlarni yaxshi o'zlashtirish uchun judayam foydali va kerakli bo'lgan "Olim bo'laman" matni orqali kasblarni yana ham mukammal tarzda ochib berilgan. Ushbu matnda juda ajoyib jumlalar, hatto katta sinf o'quvchilari uchun



ham kerakli jumlalar keltirilgan. O'qituvchilar, o'qituvchilik kasbi haqida, bilimlar xazinasi haqida o'qituvchilikning mukammal ko'rinishi ya'ni afzali olimlik haqida so'z borgan. Olim bo'lish uchun juda ko'p o'qish kerakligi haqida ilmning afzalligi haqida bilimlar berilgan.

Ushbu matnni har bir o'quvchiga o'qitish orqali darsning asosiy qismini boshlaymiz. Darsda T sxemasi va BBB metodidan foydalansak juda foydali bo'ladi. T - sxema metodi

Ushbu metodni konsepsiya, voqeilikka, ob'ektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo'llash mumkin.

Metodning maqsadi:

bitta konsepsiya (ma'lumot)ning xos jihatlarini o'zaro solishtirish yoki ularni

mosligini (ha/yo'q, ha/qarshi) tahlil qilish uchun. Tanqidiy mushohada rivojlanadiradi.

T sxemasi metodida, o'quvchilarining nazdida kasblarning ijobiy va salbiy jihatlarini yozishlarini so'raladi. O'quvchilar bilganlaricha yomon tarafini yozishadi masalan shifokorlik kasbi haqida ko'pchilik o'quvchilar qo'rqqani uchun shifokor ukol qilgani uchun qo'rqishlarini va salbiy tarafini yozishdi, ammo insonlarni davolaydi shifo beradi deya ijobiy tarafini ham yozishadi. Ayniqsa men uchun qiziqarli bo'lgani ba'zi bir o'quvchilarimiz o'qituvchilik kasbining salbiy tomoni o'quvchilarini urishlari va urishishlari deya javob yozishdi; Men amaliyotda o'tkazgan maktab o'quvchilarimizdan juda xursand bo'dim, o'quvchilar juda bilimli salohiyatliligi insonni quvontiradi. BBB metodini darsni boshlashimiz oldidan tarqatib chiqildi va to'ldirib olindi. Dars da'vemida yozilgan bilmaydigan kasblarini yozib qo'yishgan ekan. Masalan stuardessa, provadnik (poyezd vagonlari kuzatuvchisi) kabi kasblarni bilib olishdi. Uyga vazifa qilib esa kelajakda kim bo'laman? Yoki men tanlagan kasb mavzusida matn tuzib kelish topshiriladi.

Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zini va o'zgalarni tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni bartaraf etishda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyat darajasiga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212-14.
2. Azadovna, R. M. (2020). Teaching Students Professional Terminology In The Course Of English For Specific Purposes (ESP). Наука и образование сегодня, 3(50).



3. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(4), 16-20.
4. Djurayeva, Y. (2020). The Role of Phonetics in Languages Teaching. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(1), 44-49.
5. Ilhomov, Z. A., & Muxammadiyev, L. G. (2020). Theoretical issues of history in Beruni's work "Monuments of ancient peoples". *International Journal of History*, 2(1), 35-36.
6. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.
7. Krivosheeva, G., & Qayumova, G. (2020). Phraselogical Units in English Languages. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(1), 88-94.
8. Mardonov, S., Toshtemirova, S., Ahmadjonov, B., & Koshanova, N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. *International Journal of Psychological Rehabilitation*, 24(7), 8104-8111.
9. Matkarimova, S. S. Q. (2021). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINING ELEKTRON RESURSLARINI YARATISHDA TALMEH SAN'ATINING O 'RNI. *Scientific progress*, 1(6), 528-534.
10. Маткаримова, С. Ш. Қ. (2020). АДАБИЁТ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ДАРСЛИКЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 3), 127-133.
11. Matkarimova, S. S. Q. (2022). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULDA O 'RGANISH (10-SINF ADABIYOT DARSЛИGI) MISOLIDA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(10), 425-429.
12. Matkarimova, S. S., & Umaraliyeva, M. N. (2023). O 'TKIR HOSHIMOVNING PSIXOLOGIK TASVIR MAHORATI ("URUSHNING SO 'NGGI QURBONI" HIKOYASI MISOLIDA). *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 13, 253-255.
13. Akhrolovich, N. R. (2022). Influence of mineral fertilizers of different norms on the yield and product quality of white cabbage varieties. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 500-507.
14. Inomjonovna, I. D. (2023, April). Boshlang'ich sinflarda individual ishlash texnologiyasi va uning samaradorligi. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 207-212).
15. Ибрагимова, Д. И. (2022). Замонавий мактабларда адабиёт фанини ўқитиш муаммолари. Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар, 1(2), 333-335.
16. Ибрагимова, Д. И. (2021). АЛИШЕР НАВОЙЙИНГ ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО АСАРИДА ПАЙҒАМБАРЛАР ГЕНЕЗИСИ ТАҲЛИЛИ. *Conference*, 1(2), 63-65.



17. Ibragimova, D. (2021). “ҚИСАСИ РАБҒУЗИЙ” АСАРИДА ПРОФЕТОЛОГИК ИЛДИЗЛАРНИ ЎРГАНИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Умарова, З., & Сайлиева, М. М. Қ. (2021). Конфликтология назарияси хусусиятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(1), 629-633.
19. Sayliyeva, M. M. (2023). Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni. *Mugallim ilmiy jurnalı*, 1(3), 160-166.
20. Sayliyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi. *Academic research in educational sciences*, 4(3), 390-393.
21. Sayliyeva, M. M.; Hoshimova, D. (2021). Chet tillarini integrallashgan holda o'qitish yuzasidan ayrim fikr va mulohazalar. *The development of scientific progress*, 1(1), 55-56.
22. Ўтаев, А., & Сайлиева, М. (2021). Навоий достонларида комил инсон талқини. *Scientific progress*, 1(4), 21-24.
23. Sayliyeva, M. M. Q. (2021). Boshlang 'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 770-772.
24. Sayliyeva, M. M. (2019). Ma'ruza mashg'ulotlarida talabalar faolligini oshirish texnologiyalari. *Actual Problems of modern pedagogical sciences*, 1(1), 197-198.